



**BESH TASHABBUS VA UNING YUKSAK MA'NAVIY  
MADANIYAYATNI TA'MINLASHDAGI O'RNI**

*Xursanova Shahrizoda O'rol qizi*

*Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti, Xorijiy til va  
adabiyoti fakultetining, Ingiliz tili yo'nalishining 105-guruh talabasi*

*To'yeva Muhayyo Shuxrat qizi*

*Ijtimoiy fanlar kafedrasida falsafa fani o'qituvchisi*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada yurtimizda olib borilayotgan besh muhim tashabbus va uning yoshlar hayotida tutgan o'rni haqida. Yoshlarga berayogan imkoniyatlar haqida so'z yuritiladi.*

***Аннотация:** В данной статье рассказывается о пяти важных инициативах нашей страны и их роли в жизни молодежи.*

***Abstract:** This article talks about five important initiatives in our country and their role in the lives of young people.*

***Kalit so'zlar:** besh tashabbus, istedod, jismoniy chiniqish, kompyuter texnologiyalari, kitobxonlik, tashabbuskor.*

***Ключевые слова:** пять инициатив, талант, физическая подготовка, компьютерные технологии, чтение, предприниматель.*

***Key words:** initiative, talent, physical training, computer technology, reading, entrepreneurship.*

Barchamizga ma'lumki bugun biz Yangi O'zbekistonda "Uchinchi Renesans" barpo etmoqdamiz, bu islohatlardan ko'zlangan maqsad shuki, barcha inson

manfaati uchun, xalqni rozi qilish uchun amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz tashabbuslari bilan yoshlarimizga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga urg'u alohida e'tibor berilmoqda. Bugun biz glaballashuv davrida yashayotganligimizni inobatga olgan holda, turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan dunyo manzaralarida yoshlarimizning ma'naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish har qachongidan ham dolzarbroq ekanini zamonning o'zi ko'rsatib turibdi. Bo'layotgan voqealarni inobatga olgan holda prezidentimiz tomonlaridan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus muhim ahamiyat kasb ega hisoblanadi. Avvalo bu tashabbuslar haqida tashib olsak:

**Birinchi tashabbus** yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

**Ikkinchi tashabbus** yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

**Uchinchi tashabbus** aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

**To'rtinchi tashabbus** yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

**Beshinchi tashabbus** xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

Ushbu 5 tashabbus keng jamoatchilik tomonidan katta qiziqish bilan kutib olingani va endilikda ushbu tajribani yurtimizning barcha hududlarida keng joriy etilishi kerakligi masalalari e'tibor markazida bo'ldi. Madaniyat vazirligi va Xalq ta'limi vazirligiga hokimliklar bilan birgalikda tuman va shaharlarda madaniyat markazlari va umumta'lim maktablarida yoshlarning qiziqishidan kelib chiqib, qo'shimcha 1,5 mingta to'garak tashkil etish vazifasi qo'yilgandi. Bugun amalga

oshirilib kelayotgan barcha tashabbus loyihalari yoshlarning ilm olib, kasb-hunarga yo'naltirilishlari bu tizim qanchalik muhimligini ko'rsatadi.

Birinchi tashabbus doirasida, taniqli san'atkor va iste'dodli ijodkorlarni tumanlardagi madaniy ishlarga ko'makchi sifatida birlashtirish yaxshi natija berayotganini inobatga olib, bu tajribani butun mamlakatga yoyish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Unga muvofiq, taniqli artistlar tuman va shaharlarga ijodiy maslahatchi sifatida birlashtirilib, o'sha joylarda madaniyat va san'atni rivojlantirishga mas'ul bo'ladi, tuman va shaharlar hokimlari esa ushbu ishlarga moddiy va tashkiliy jihatdan yordam berishdi.

Ikkinchi tashabbusga doir masalalar muhokama qilinarkan, diyorimizda 12 mingdan ziyod sport inshootlari borligi, lekin yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sportga qamrab olish darajasi yetarli emasligi qayd etilgan holda bu tashabbus ham sportda erishgan yutuqlari bilan o'z natijasiga erishdi.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan yoshlarga oid davlat [siyosatini takomillashtirish](#), yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida bir qancha muhim hujjatlar qabul qilingan va amaliy ishlar yo'lga qo'yilgandi, muayyan natijalarga erishildi. Shunday bo'lsa ham, bu borada bajariladigan ishlar hamisha keng ko'lamlilik bo'lib, o'z dolzarbligini o'sib kelayotgan yosh avlod bor ekan doimo muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yilning 19-mart kuni 5 ta muhim tashabbusini ilgari surganligi bu tarixiy sanada bu muhim tashabbus loyihasi, yosh avlod uchun muhim poydevor bo'ldi desak adashmagan bo'lamiz. Yoshlarning e'tiborsiz qolishi juda katta muammo bo'lib, uning yechimi davlat, fuqarolik jamiyati, xususiy sektor, qo'yingki, barchaning birgalikda harakat qilishini talab etadi. Birgina pandemiya davrida maktablarning bir necha oyga yopilgani ta'lim sifati bilan birga yoshlar o'rtasida sotsiallashtirish, ijtimoiy birdamlik darajasi keskin pasayib ketgani, gadjetlarga mukkasidan ketish singari salbiy holatlar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Mazkur tashabbuslar yosh avlodni har tomonlama mukammal tarbiyalash, ularning bo'sh vaqtini mazmunli va samarali o'tkazish ishlarini qamrab olgan bo'lib, tegishli sohalar ishtirokida amalga oshirib boriladi. Yig'ilishda har bir tashabbusning maqsadi aniq belgilanib, ijro etuvchi sohalarga tegishli vazifalar yuklatildi. Jumladan, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi ham to'rtinchi tashabbusaholi, ayniqsa, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish masalalari bo'yicha mas'ul tashkilot sifatida jarayonda faol ishtirokchiga aylanadi. Markazda quyidagi yo'nalishlarda amaliy ishlar olib borish yo'lga qo'yilmoqda:

1) tegishli tashkilotlar mas'ulligi va hamkorligida 1 oy muddatda mazmun va mohiyat nuqtayi nazaridan milliy ruhimiz, shonli tariximiz va vatanparvar ajdodlarimizga munosib bo'lgan harbiy qasamyodning yangi matni bo'yicha taklif tayyorlash;

2) Xalq ta'limi vazirligi mas'ulligida Yoshlar ittifoqi bilan hamkorlikda an'anaviy tarzda bir yilda ikki marotaba, 1-iyun — Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni va 2-sentabr — Bilimlar kunida mamlakatimiz bo'ylab o'tkaziladigan “Qadrdon maktabimga kitob sovg'a qilaman” shiori ostida aksiya tashkil qilish;

3) Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi mas'ul tashkilot sifatida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi, O'zbekiston milliy teleradio-kompaniyasi, Elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi va Jurnalistlar uyushmasi bilan birgalikda, bir yilda bir marta — 9-fevral — buyuk ajdodimiz Alisher Navoiyning tavallud kunida e'lon qilinadigan “Bu yilda o'qilishi zarur bo'lgan 100 ta kitob” ro'yxatini tuzib chiqish, ushbu kitoblarning yil davomida tele va radioefirlarda o'qib borilishi, el tanigan ziyolilar orqali barcha turdagi ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng tashviqotini tashkil qilish;

4) Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi mas'ulligida Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita va O'zbekiston musulmonlari idorasi bilan hamkorlikda jahon va o'zbek adabiyoti, tariximiz va qadriyatlarimiz bilan bog'liq sara asarlar, shuningdek, islom dini tarixi, islom dinining asl mazmun-mohiyati va yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk allomalar haqida hikoya qiluvchi ixchamlashtirilgan matnlarni chop etish va audiokitoblar tayyorlashni ta'minlash;

5) Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi mas'ul tashkilot sifatida Yoshlar ittifoqi va Madaniyat vazirligi bilan birgalikda yoshlarni ma'naviy barkamol etib tarbiyalash, ularni yot g'oyalarni ta'siridan himoya qilish hamda kitobxonlikka keng jalb etishga qaratilgan ta'sirchan, tizimli, maqsadli va manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish. Ya'ni bugungi kunda mazkur vazifalar ijrosi yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilib, zarur chora-tadbirlar belgilanib, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilganligi alohida ahamiyatga ega.

Davlatimiz rahbari tomonidan yosh avlodni tarbiyalash ishlariga bunday aniq va maqsadli yondashuv, tizimli va tartibli qat'iy munosabat barcha soha vakillarini, shuningdek, keng aholi qatlami, ayniqsa, yoshlarni yanada sergaklantirib, daxldorlik hissi va mas'ulligini oshirishi tabiiy albatta. Oliy hamda ezgu maqsadlar sari bir yoqadan bosh chiqarib, birgalikda harakat qilish, o'zaro qo'llab-quvvatlash orqali yuqori natijalarga erishish, yurt taraqqiyotiga munosib hissa qo'shish kelinmoqda.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki Prezidentimiz tomonlaridan ilgari surulib, xalqimiz, ayniqsa yosh avlod tomonidan qo'llab quvvatlangan besh tashabbus bugun o'zini mutloqo boshqacha biz kutgandanda a'lo darajada yoshlarni qo'llab-quvvatlamogda. Ya'ni besh tashabbus mamlakatimizni kengroq "O'zbekiston 2030" rivojlanish strategiyasining strategik qismidir. Ushbu tashabbuslar ijtimoiy, ta'lim va iqtisodiy sohalarni rivojlanishiga, xususan yoshlar rivojlanishi va ijtimoiy faravonligini oshirishga qaratilgan.

Dono xalqimizda bir gap bor "musiqaga oshno qalblarda yomonlik bo'lmaydi"

birinchi tashabbus orqali muhtaram Prezidentimiz yoshlarni qalbini poklikka va yoshlikdagi beg'uborlikka chorlaganliklarini ko'rishimiz mumkin. Ikkinchi tashabbusda sog'lom tanda sog'lom aql shiori turadi. Yoshlar sport bilan shug'illanib sog'lom va faol turmush tarzini shakillantirishga qaratilgan. Uchinchi tashabbus buguning yoshlari raqamli texnologiyalardan xabardorligi, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishiga qaratilgan. To'rtinchi tashabbus kitobxonlikni targ'ib qilish orqali yosh avlodni savodxonlikka chaqiriq desak bo'ladi. Kitobxonlik odatlarini rag'batlantirish orqali yoshlarni keng ko'lamli adabiyotlardan foydalana olishga qaratilgan. Beshinchi tashabbus xotin-qizlarbi ish bilan ta'minlash va ularning imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Jamiyatda ayollar mehnatidan foydalanish nafaqat oilalar balki davlat iqtisodiyoti uchun ham foyda hisoblanadi.

Bu besh tashabbus O'zbekistonda mustahkam ijtimoiy-iqtisodiy asos yaratishga qaratilgan keng qamrovli sa'y-harakatlarning bir qismidir. Zero islohatlar natijasi o'laroq yurtimizda iqtisodiy islohatlar, ta'lim va ijtimoiy himoya sohalarida sezilarli yutuqlarga erishildi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1 Mirziyoev SH.M. O'zbekiston Respublikasi rivojlanishining 2017-2021 yillarga mo'ljallangan beshta ustvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi".- T.: O'zbekiston 2017.

2. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi. -T.: O'zbekiston, 2017.

3. Mirziyoev SH.M. Yoshlar tarbiyasida besh tashabbus. -T.: O'zbekiston, 2018

4. Ortiqov N.O., Jo'rayev A.J. Maktab, oila va jamoatchilik hamkorligi kengashi O'qituvchi", 1989.

5. Ochilov M. "Muallim – qalb me'mori" T.: "O'qituvchi" 2001

6. To'yeva.M.SH O'zbekiston Respublikasi yangilanish jarayonida xotin-qizlar innovatsion tafakkurini oshirish va faollashuvi borasidagi siyosati umumnazariy tahlillar. [https://t.me/OAK\\_jurnallar\\_uz](https://t.me/OAK_jurnallar_uz).